

HOKIM HUDUDLARDA



Qo'shtepa tumani hududlaridagi barcha mahallalarda keng qamrovli obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish tadbirlari tashkil etilmoqda.

Obodonlashtirish ishlari jarayonida mahallalar, hovlilar atrofi, ziyoratgoh va qabristonlarni tartibga keltirish, chiqindilarni belgilangan joyga chiqarib tashlash, ko'chalarni ta'mirlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Katta-yu kichik aholi vakillari ushbu ezgu tadbirda faol qatnashmoqda.



Bugun tuman hokimi Anvarjon Abdullayev Karnaychi MFY hududidagi aholi xonadonlari, yo'l yoqalari, ariq va zovurlarni tozalash bo'yicha olib borilayotgan keng ko'lamli ishlar bilan tanishdi.

Tuman hokimi tomonidan mas'ullarga tegishli ko'rsatmalar berilib, 16-18 mart kunlari o'tkaziladigan umumxalq hasharini ham huddi shunday ko'tarinki ruhda o'tkazish, shuningdek, hududda obodonlashtirish ishlarini tizimli tashkil etish va belgilangan muddatda bajarilishini ta'minlash bo'yicha tushunchalar berildi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#)

2024-03-15 17:24:33